

Andijon viloyatida "Mineral o'g'it - mo'l hosil garovi" mavzusida amaliy seminar o'tkazildi

// 27 February 2025 yil

<https://special.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/andijon-viloyatida-mineral-o-g-it-mo-l-hosil-garovi-mavzusi>
d



Xabar berib borayotganimizdek, "O'zkiyosanoat" AJ fermerlar va soha vakillari ishtirokida hududlarda "Mineral o'g'it - mo'l hosil garovi" mavzusida turkum amaliy seminarlar o'tkazib kelmoqda.

Ularning navbatdagisi Andijon viloyatida tashkil etildi.



O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirda viloyat va tuman hokimlarining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, qishloq xo'jaligi boshqarmalari rahbarlari, fermerlar, tadbirkorlik subyektlari, tijorat banklari hamda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalari mutasaddilari ishtirok etdi.



“O‘zkimyosanoat” AJ rahbariyati hamda soha mas’ullari tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mineral o‘g‘itlarning sifati va xususiyatlari, mineral o‘g‘itlarni birjada chegirma narxlarda sotish mexanizmi, hududlarda faoliyat olib borayotgan korxonalarning ijara (vakolatli) omborlari xususida batafsil ma’lumotlar berdilar.

Ta’kidlash joiz, “O‘zkimyosanoat” Ajda mineral o‘g‘itlar savdosi bo‘yicha fermer xo‘jaliklari va dehqonlar uchun bir qator qulayliklar yaratilmoqda. Xususan, birja savdolariga mineral o‘g‘itlarning boshlang‘ich narxlaridan o‘rtacha 10%gacha pasaytirib xarid qilish-auksion tartibida savdoga qo‘yish mexanizmi joriy etildi.



Tadbir davomida birjada alohida “forvard” kontraktlarda oldindan 30 foiz to'lov, qolgan 70 foiz qismiga faktoring xizmatidan foydalangan holda xarid qilish mexanizmlari yuzasidan taqdimotlar o'tkazildi.

Amaliy muloqot formatida tashkil etilgan tadbirda ishtirokchilarni qiziqtirgan savollariga atroflicha javoblar berildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati